



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKLARDA AUDIT O'TKAZISH JARAYONLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Obidov Abrorbek Olimjon o'g'li

"Xududgazta'minot" AJning

ichki audit xizmati rahbari

abror-obidov@mail.ru

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining shaffofligi va ishonchliligi moliyaviy axborotning to‘g‘riliqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Aynan mana shu vazifani bajarishda auditorlik tekshiruvlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda audit o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, bu jarayonning mohiyati, bosqichlari va individual yondashuvlarni tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tizimda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Auditorlik sohasi — bu faqat texnik tekshiruv emas, balki iqtisodiy tahlil, menejment, yuridik masalalar, axborot texnologiyalari va muloqot madaniyati kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab olgan murakkab tizimdir. Auditor faqatgina buxgalteriya yoki soliq qonunchiligi bo‘yicha mutaxassis emas, balki mijoz bilan munosabat o‘rnatish, uni saqlab qolish, xatarlarni aniqlash, baholash va hal etish bo‘yicha ham yetuk mutaxassis bo‘lishi kerak.

Auditorlik faoliyati iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan turli subyektlar bilan bog‘liq bo‘lganligi bois, auditor nafaqat moliyaviy bilimga, balki turli sohalardagi dolzarb yangiliklardan xabardorlikka ham ega bo‘lishi lozim. Bu uning kasbiy salohiyatini oshiradi va xizmatining sifatini belgilaydi.

Auditor tekshiruvni boshlashdan oldin, har qanday auditorlik firmasi bo‘lajak mijoz haqida yetarli ma’lumot to‘plashi kerak. Bu jarayon faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish bilan cheklanmaydi. Mijozning moliyaviy tarixi, rahbariyatining halolligi, biznes yuritish madaniyati, oldingi auditorlar bilan bo‘lgan



aloqalari, korxonaning obro'si va yuridik statusi chuqur o'rganiladi. Ayniqsa, ilgari jinoyat ishi ochilgan yoki qonunbuzarlik holatlari aniqlangan korxonalardan voz kechish auditorlik firmasi uchun majburiy ehtiyyot chorasi hisoblanadi.

Korxona moliyaviy hisobotlarida real bo'lмаган daromadlar ko'rsatilgan, xarajatlar esa kamaytirilgan holatlар mayjud bo'lsa, bu auditorni shubhali vaziyatga olib keladi. Bu kabi holatlар rejalashtirish bosqichida aniqlanmasa, audit sifati va ishonchliliği jiddiy shubha ostida qoladi.

Audit jarayonining eng muhim va tayanch bosqichlaridan biri bu – rejalashtirish bosqichidir. Bu bosqichda auditor o'z tekshiruvining asosiy maqsadini aniqlaydi, yo'nalishlarni belgilaydi, audit guruhining tarkibini shakllantiradi va ularning majburiyatlarini aniqlab beradi. Rejalashtirishda quyidagi elementlar muhim ahamiyatga ega:

- audit obyekti faoliyatini tushunish;
- ichki nazorat tizimini baholash;
- muhimlik mezonlarini belgilash;
- audit risklarini aniqlash;
- audit dalillarini yig'ish uslublarini tanlash;
- ishchi reja tuzish.

Shu bilan birga, audit rejasini ishlab chiqishda korxonaning faoliyat sohasi, ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulot turlari, buxgalteriya hisobi yuritish uslublari, ichki nazorat tizimi, ilgari aniqlangan kamchiliklar va boshqa jihatlar e'tiborga olinadi.

Ichki nazorat tizimi korxonaning buxgalteriya axborotining ishonchliliginini ta'minlaydigan asosiy vositalardan biridir. Auditor mazkur tizimni o'rganish orqali buxgalteriya tizimida aniqlanishi mumkin bo'lgan xatoliklar yoki noto'g'ri ma'lumotlar xavfini kamaytirishga intiladi. Bu tizim samarali bo'lishi uchun:

- noto'g'ri axborotga rahbariyatning tezkor munosabati ta'minlangan bo'lishi;
- hujjatlashtirish mukammal yuritilishi;
- mas'uliyatlar aniq belgilangan bo'lishi;



- ichki tekshiruvlar natijalari qayd etilishi zarur.

Ichki nazorat tizimi ishonchli deb topilgan taqdirda, auditor audit dalillarining miqdorini kamaytirishi mumkin. Aks holda, dalillarni to‘plash ko‘lami kengaytiriladi.

Audit tekshiruvini samarali tashkil qilish uchun auditorlik firmasi quyidagi jihatlarni inobatga olishi zarur:

1. Mijoz faoliyatining aynan qaysi sohasi auditdan o‘tkazilishi;
2. Audit guruhining tarkibi (mutaxassislar soni, tajribasi, malakasi);
3. Har bir auditorning mas’uliyati, topshiriqlari;
4. Audit tekshiruvining vaqt oralig‘i va umumiy davomiyligi;
5. Foydalilaniladigan standartlar va hujjatlar ro‘yxati.

Bu bosqichda auditorlik firmasi tekshiruvning har bir detalini sinchkovlik bilan belgilaydi. Rejalashtirish jarayoni faqat boshlanishda emas, balki tekshiruv davomida ham moslashtirilib boriladi. Agar tekshiruv jarayonida kutilmagan holatlar yuzaga kelsa, audit rejasi yangilanishi mumkin.

Auditorlik faoliyati faqatgina texnik tekshiruv emas, balki muloqot va etika doirasidagi mas’uliyatli faoliyatdir. Auditor mijoz bilan halol, adolatli va professional munosabatda bo‘lishi, o‘zining betarafligini saqlashi, tijoriy manfaatlarga berilmasligi lozim.

Shu bilan birga, auditor mijoz bilan mustahkam aloqa o‘rnatishga intilishi kerak. Bu:

- Tekshiruv jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish;
- Keyingi yillarda ham hamkorlikni davom ettirish;
- Professional maslahatlar berish orqali mijozga foya yetkazish;
- Auditorlik sohasida raqobatda ustunlikka erishish imkonini beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat yuritadigan tarmoq, bozor sharoitlari, qonunchilikdagi o‘zgarishlar, texnologik yangiliklar, davlat siyosati va boshqa tashqi omillar audit jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli auditor quyidagi omillarni chuqur o‘rganishi lozim:

- Mijoz ishlab chiqarayotgan mahsulotlar yoki xizmatlar;



- Korxonaning tashkiliy tuzilmasi;
- Buxgalteriya hisob siyosati;
- Soliq imtiyozlari yoki majburiyatlari;
- Boshqa tarmoqlarda mavjud buxgalteriya amaliyoti;
- OAVda e'lon qilingan axborotlar yoki statistik ma'lumotlar.

Bu ma'lumotlar auditor uchun o'ta qimmatli bo'lib, audit xulosasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlarda audit qo'mitasi auditorlar bilan muloqotda muhim o'rin tutadi. Bu qo'mita:

- korxona direktorlar kengashi tarkibida faoliyat yuritadi;\
- ichki auditorlar va tashqi auditorlar o'rtaсидagi vositachilik vazifasini bajaradi;
- kamchiliklarni muhokama qilishda rahbariyatdan mustaqil hisoblanadi.
- audit qo'mitasi ishtiroki auditorlar uchun yanada ochiq va erkin muhokama muhitini yaratadi. Shu orqali auditorlik xulosasining aniqligi, adolatliligi va mustaqilligi oshadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda audit o'tkazish o'zining murakkabligi, ko'p bosqichli rejalashtirishni talab qilishi, tashqi va ichki omillar bilan bog'liqligi bilan ajralib turadi. Har bir korxonaning faoliyati o'ziga xos bo'lgani uchun, auditorlar ham har bir holatda individual, moslashuvchan va professional yondashuvni qo'llashlari shart. Audit jarayoni faqat tekshirish emas, balki ishonchni shakllantirish, shaffoflikni ta'minlash va raqobatbardosh iqtisodiyotga xizmat qilish vositasidir.

Shunday ekan, bugungi zamon auditori – bu yuqori kasbiy malakaga ega, keng dunyoqarashli, muloqot madaniyatiga ega va zamonaviy texnologiyalarni puxta biladigan universal mutaxassis bo'lishi lozim. Faqatgina shunday auditorlargina iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'sha oladilar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аҳмаджонов К.Б. Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида ички аудит методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т., 2016. – 76 б.
2. Тўраев А.Н. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит хизматининг назарий ва амалий масаллари. Монография. – Т.: LESSON PRESS, 2017. – 213 б.
3. Lynn Fountain Leading the Internal Audit Function (Internal Audit and IT Audit), 2015 – 293 pg.
4. Norman Marks World-Class Internal Audit: Tales from my Journey, 2014 – 244 pg.
5. <http://www.aasb.com> International Auditing and Assurance Standards Board.
6. <http://uzaudit.uz/> Ўзбекистон Аудиторлар Палатаси расмий сайти